

ABDULLA QAHHOR “QO‘SHCHINOR CHIROQLARI” ROMANIDA BOSH OBRAZLAR TAHLILI**Qo‘chqorova Sevinch Valiboy qizi**

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3 - bosqich talabasi.

quchqarovasevinch94@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20030266>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” romani bosh obrazlar: Siddiqjon, Xanifa (kanizak), Sharofat, Anzirat xola, Abdusamatqori, O‘rmonjon kabilar tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan bosh obrazlar o‘zaro syujet chiziqlarida taqdirleri kesishadi. Ushbu maqola orqali Abdulla Qahhor turli xil salbiy va ijobiy obrazlarni prototip sifatida olgan. Asarda voqealar rivoji realizm orqali yoritilib bergan. Urushdan keyin insonlarning ilim sari qadam qo‘yishi, davr qiyinchiliklari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Obraz, syujet chiziqlari, kolxozlashtirish, Qo‘shchinor kolxozi, ichkuyov.

Аннотация. В данной статье представлен литературоведческий анализ системы образов романа Абдуллы Каххора «Огни Кошчинара». Автор исследует художественные функции и психологические портреты таких персонажей, как Сиддикжон, Ханифа (Канизак), Шарофат, Анзират-хола, Абдусаматкори и Урмонжон, чьи судьбы переплетаются в единой сюжетной канве. В работе рассматриваются типологические особенности положительных и отрицательных героев, послуживших прототипами для создания реалистической картины эпохи. Особое внимание уделяется отражению послевоенных реалий, тяге народа к просвещению и преодолению социально-экономических трудностей периода коллективизации.

Ключевые слова: Образ, сюжетные линии, коллективизация, колхоз «Кошчинар», зять-примак (ичкучёв)

Abstract. This article offers a comprehensive literary analysis of the protagonist system in Abdulla Qahhor’s novel, *The Lights of Qoshchinor*. It examines the character arcs and structural significance of key figures, including Siddiqjon, Khanifa (Kanizak), Sharofat, Aunt Anzirat, Abdusamatqori, and Ormonjon, highlighting the intersection of their destinies within the narrative framework. The study explores the author’s use of realistic prototypes to construct both positive and negative archetypes. Furthermore, the article delves into the socio-historical context of the post-war era, illustrating the collective pursuit of education and the systemic challenges inherent in the period of collectivization.

Keywords: literary character, plot structure, collectivization, *Qoshchinor kolkhoz, ichkuyov*(uxorilocal marriage), social realism.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida XX asrning ikkinchi yarmi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. V.G.Belinskiy ta’kid etganidek, san’atdagi eng oliy predmet — inson hisoblanarkan, demak, “obraz” atamasini insonga (badiiy asardagi insonga) nisbatan qo‘llash ma’quldir. Chunki, “Yozuvchining materiali — uning o‘zi kabi xususiyatlar, niyatlar, xohishlarga ega bo‘lgan, did va kayfiyatlari o‘zgarib turadigan insondir” (M.Gorkiy, 101-bet).

Adabiyotda ana shu Insonga va unga asoslanib hayotning qolgan barcha predmetlari, hodisalari ham insoniy lashadi, Insonning badiiy kashfi uchun xizmat qiladilar.¹

¹ HOTAM UMUROV “ADABIYOTSHUNOSLIK

Bu davrda adabiyotda inson hayoti, uning ruhiy olami va jamiyatdagi o'rni masalalari chuqurroq yoritila boshladi. Ayniqsa, urushdan keyingi davr voqealarini aks ettiruvchi asarlar orqali xalqning og'ir sinovlardan o'tgan hayoti, mehnatga bo'lgan munosabati va ma'naviy tiklanish jarayoni badiiy ifodasini topdi. Shu jihatdan Abdulla Qahhor ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Adibning "Qo'shchinor chiroqlari" romani o'zbek qishlog'i hayotini realistik ruhda tasvirlagan yirik asarlardan biridir.

Asarda oddiy insonlarning kundalik turmushi, ularning orzu-intilishlari, mehnat jarayonidagi faoliyati hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi badiiy jihatdan yuksak darajada yoritilgan. Muallif voqelikni haqqoniy tasvirlash orqali nafaqat davr manzarasini yaratadi, balki insoniy fazilatlarini ham chuqur ochib beradi. "Qo'shchinor chiroqlari" romanida muallif realizm an'anasiga sodiq qolgan holda hayot haqiqatini badiiy obrazlar vositasida ifodalaydi. Asardagi har bir obraz o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, ular orqali jamiyatdagi turli qatlamlar, turmush tarzi va dunyoqarashlar tasvirlanadi. Bu esa romanning nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham oshiradi. Yozuvchi til va uslub jihatidan ham sodda, ravon va ta'sirchan ifoda vositalaridan foydalanib, o'quvchini asar voqealariga chuqur jalb eta oladi.

Asarda insoniy fazilatlar — halollik, vijdon, mehnatsevarlik, sadoqat kabi qadriyatlar markaziy o'rinni egallaydi. Bu jihatlar orqali muallif o'quvchini ma'naviy jihatdan tarbiyalash, jamiyatda ijobiy fazilatlarini qaror toptirish g'oyasini ilgari suradi. Asarda tasvirlangan voqealar va obrazlar bugungi kun o'quvchisi uchun ham dolzarb bo'lib, ular orqali zamonaviy jamiyat muammolarini ham anglash mumkin.

Romanning boshidan oxirigacha qatnashgan bosh obraz bu – Siddiqjon hisoblanadi.

Siddiqjon kambag'al oiladan chiqqanligi va Zunnunxo'ja ismli boyga ichkuyov bo'lib yashayotganligi asar boshida tasvirlanadi. Siddiqjonning ichkuyovligi uning hayotida katta yo'qotishlarga sabab bo'ladi. U tug'ilib o'sgan joyi – Bahroboddan, o'z onasi, yor-u birodar og'aynilaridan – O'rmonjon, Obidjon, Sobirjon qori kabi insonlardan uzoqlasha boshlaydi. "O'rmonjonning otasi Omon aka Siddiqjonning otasi Sohibjon aka bilan juda qalin o'rtoq edi, ikki oshna o'lib ketgandan keyin O'rmonjon bilan Siddiqjon chinakam aka-ukaday bo'lib qolishgan edi. O'rmonjon qishloq maktabida o'qib xat-savodini chiqardi, so'ngra Samarqanddagi partiya-sovet maktabiga o'qishga ketdi, o'qishdan kelib, yer islohotidan keyinroq sobiq batraklardan tashkil topgan kolxozga rais bo'ldi, shu kunlari va undan keyin ham Siddiqjonni Bahrobodga olib kelishga, kolxozga tortishga necha-necha harakat qildi: tushuntirdi, va'da berdi, yaxshi gapirib ham ko'rdi, yomon gapirib ham ko'rdi — foydasi bo'lmadi. Shundan keyin O'rmonjon uni xushlamaydigan, ko'rishganda so'zni qisqa qiladigan bo'lib qolgan edi.

Biroq u hozir, Hadicha xolani yo'lakay ko'rib chiqqani kirgan bo'lsa ham, Siddiqjonni ko'rib xiyla o'tirdi, nimagadir gashi kelayotganday undan kinoyomuz hol-ahvol so'radi-da, "boy bo'lib bolttang yo'q, gadoy bo'lib haltang yo'q", deb zaharxanda qildi. Bu gapni hazilga yo'yib Siddiqjon ham kuldi. Biroq uning kulishi O'rmonjonning ruyirost gashini keltirdi.

— Nega kulasan, o'zingdan kulayapsanmi? — dedi mayin, lekin kishiga qamchidan ham qattiqroq tegadigan bir tovush bilan. — Agar o'zingdan kulayotgan bo'lsang, avvalo Zunnunxo'janing sandig'ida yotib aqling mog'orlab ketganidan kulgin. Ha, nega baqrayasan? Aqling mog'or bosmaganmi bu? Hech o'ylaysanmi: qishloqda, qishloqlarda shuncha voqealar bo'lib o'tdi, boylar, mushtumzo'rlar — bir tomon, kambag'allar, batraklar — bir tomon... Kolxoz, kurash, hatto qon... nega? Hech atrofingga qaramaysanmi?

O'rtoqlaring, o'zing qatori qarollar, batraklar nima qildi, nima qilayapti? Nega sen o'z tupingdan ayrilib qolding? Ayрилganni bo'ri yer emish-ku! Onang umid bilan beshigingni tebratgan, shu bechora onang sendan nima ko'rди? Bu yerdagi o'rtoqlaring seni, sen yuvindixo'rni hamqishlog'imiz degani or qilisha(di)!"²

Asarda keltirilgan ushbu dialog Siddiqjon va O'rmonjonlar o'tasida bo'lib o'tadi.

O'rmonjon Siddiqjonga yaqinlari uchun begona insonga aylanganligini va o'z ona zaminini unutganligini ta'kidlaydi va shu bilan birga kalxoz ishiga qaytishga undaydi.

O'rmonjon "yetti o'lchab bir kesadigan", chuqur mulohazali, o'qigan, ziyoli, kolxoz ishini tushunadigan inson sifatida asarda gavdalanadi. Uning bu hislatlari Abdusamadqorining O'rmonjonning ayoli To'panisoga va uning o'z yaqin o'rtog'i Bo'taboyga qilgan tuhmatlarini eshitganda ham bunga ishonmasligi va bu gaplar ig'vo chiqarish uchun ekanligini anglagandan so'ng ham Abdusamadqoriga yomonlik qilmasligini asar o'qish davomida guvoh bo'lamiz.

Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" romanida obrazlar tizimi va syujet qurilishi o'zaro uzviy bog'langan holda badiiy yaxlitlikni ta'minlaydi. Asarda qahramonlar oddiy hayot vakillari sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, ularning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy faoliyati orqali keng ma'nodagi insoniy muammolar yoritiladi. Asarda salbiy obraz sifatida keltirilgan obrazlardan biri – Abdusamadqori obrazi. Bu obraz romanda insonlar o'rtasiga nifoq urug'ini sochuvchi, ular o'rtasida ig'vo tarqatuvchi, yorug' kunlarga qora bulut kabi kirib kelgan obraz hisoblanadi. "O'rmonjonning eshigini kimdir qoqdi. O'rmonjon chiqdi.

Samandarovning tovushini eshitdi.

— *Turing, gaflatda yeta berasizmi? — dedi u tegishib. O'rmonjon uni uyga olib kirib chiroqni yoqdi.*

— *Tinchlikmi? — dedi O'rmonjon ko'zini ishqalab.*

— *Mana endi tinchlik bo'ladi, — dedi Samandarov kulib.*

— *Bu nima deganingiz?*

— *Qorinni kuzatib kelayapman. O'rmonjon uning qamoqqa olinganligini darrov sezgan bo'lsa ham, yana so'radi:*

— *Qayoqqa?*

— *Qurbon otangiz g'alati ziyraklik qilyapti-da, cholga qo'yib qolish kerak. Go'ristondan o'n sakkizta beshotar, o'ttiz bitta o'n bir otar, oltita berdanka, ikki sandiq o'q chiqdi. O'rmonjonning kayfi uchib ketdi.*

— *Miltiq? yo'q? Go'ristonni ko'chirish ishiga qoris(h)uning uchun bunchalik jon-jahdi bilan kirishgan ekan-da? Men bu ishga faqat ig'vogarlik maqsadida, xalqning jig'iga tegish maqsadida qo'l urayapti deb o'ylagan edim. Demak, bu yarqilarni yangi go'ristonga ko'chirish payida yurgan ekan-da.*

— *Kechasi yana ikki kishi tutildi, biri qorining bo'xchasi Javdot Naim, ikkinchisi Xo'jaqishloqdan. Bu odamni taniganday bo'ldim-u, lekin esolmadim. Mirhomidxo'janing o'g'liga o'xshatdim. Miltiqlarni olib avtomobilga yuklayotganda: «Mayli, olinglar, miltiq kerak bo'lganda yana topamiz», deydi. Bularning boshqa sheriklari ham bo'lsa kerak. Samandarov kun tig' tortganda O'rmonjon bilan xayrlashib chiqib ketdi.»³ Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" romanida obrazlar tizimi keng qamrovli va hayotiyli bilan ajralib turadi.*

² Abdulla Qahhor "Qo'shchinor chiroqlari" roman. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti -1987. 8-bet.

³ Abdulla Qahhor "Qo'shchinor chiroqlari" roman. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti -1987. 209-bet.

Yozuvchi har bir qahramonni individual xarakterga ega qilib tasvirlaydi va ular orqali jamiyatning turli qatlamlari hamda muammolarini ochib beradi. Romandagi asosiy obrazlar – mehnatkash, halol va jamiyat taraqqiyotiga befarq bo‘lmagan insonlardir. Ular urushdan keyingi og‘ir sharoitda yashab, qishloq hayotini tiklash, farovonlikka erishish yo‘lida kurashadi. Bu qahramonlar orqali muallif mehnatsevarlik, matonat va vatanparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi.

Asarda yetakchi obrazlar odatda ijobiy xarakterga ega bo‘lib, ular boshqalarga namuna bo‘ladigan shaxslar sifatida ko‘rsatiladi. Ular muammolarni hal qilishda tashabbuskor, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yadigan insonlar sifatida gavdalanadi. Bunday obrazlar romanning g‘oyaviy markazini tashkil etadi. Ramonda kiritilgan Anzirat xola va Xanifa (Kanizak) obrazlari orqali o‘zbek ayoli timsolini ochib berilgan ushbu obrazlar oq ko‘ngilligi, mexribonligi va barchaga birdek muomala qilishi buning isbotidir. Ramanning bosh qahramoni Siddiqjon behol ahvolda Anzirat xolanikiga kelganda Anzirat xola uni o‘z farzandidek qabul qilib beminnat mexr ko‘rsatadi hatto, Sharofat ham kelib, Anzirat xolani xaqoratlab, Xanifani urgan vaqti ham Siddiqjondan xafa bo‘lmagan edi sababi Anzirat xola Siddiqjonni farzandidek ko‘rib bunday voqealar uchun undan xafa bo‘lmasligini va u ayibdor emasligini aytadi.

Siddiqjonning farzandi Nasibalini Sharofat tashlab ketganda ham Anzirat xola unga qarashligi bundan Siddiqjon hijolat bo‘lmasligini aytganda ham uning qanchalik bag‘ri keng ayol ekanligi yaqqol ko‘rinib turadi. Anzirat xola bilan yashaydigan Xanifa ham juda mexribon oqila qiz va uning hayoti orqali urushdan keyingi yillarda insonlarni qay darajada ilimsiz ekanligi ochib berilmoqda. Xanifa 11-12 yosh qizcha vaqtida otasini yoqotganligi va onasi bilan ketganligi vaqt o‘tib onasini han yo‘qotib qo‘yib, yoshi kotta kishilar uni onasiga olib borishi haqida vadalar berib uni olib ketishi, shu zamonda insonlarning hatto yosh go‘dakni soddaligidan foydalanib uni o‘z uyiga olib ketishi va 50 yoshli bo‘lishiga qaramay bu go‘dak qizni nikohiga olish jarayonlarini ochib berib bu bilan qahri qattiq va ilimsizlikni yuqori darajasi ko‘rsatilgan.

Xanifa esa sodda g‘uborsiz qiz nima bo‘layotganligini anglamagan ham bola bo‘ladi.

Boshidan shunday kunlar o‘tganligiga qaramay Xanifa o‘z soddaligini beg‘uborligini saqlab qolgan o‘zbek qizi sifatida yoritiladi, shuncha mashaqqatlar o‘tmasin irodasi sinmagan mehnatkash, sabirli qiz Xanifa oxir oqibat yorug‘ kunlarni ham ko‘radi. Kalxoz ishiga qo‘shilib o‘z faravon hayotini o‘zi qolganlar bilan birgalikda yaratadi. Ushbu asarda Anzirat xola va Xanifa kabi matonatli, oqila ayollar kabi ijobiy obrazlar bo‘lgani kabi Siddiqjonning ayoli Sharofat kabi salbiy obrazlar ham kiritilgan va bu bilan hayotda faqatgina yaxshi oq ko‘ngil insonlardan iborat emasligi, hamma joyda ham baland pasliklar bor ekanligi ko‘rsatilgan.

Sharofat obrazi mol-u dunyoga o‘ch ayol, erkinlik maishat tufayli hatto farzandi Nasibali ham ko‘zga ko‘rinmadi uni hatto „itvachcha“ deb ham ataydi. Bu xulq atvori bilan o‘zini saviyasini ko‘rsatadi.

Ular orqali yozuvchi jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid qiladi va o‘zgarish zarurligini ko‘rsatadi. Bu obrazlar ijobiy qahramonlar bilan qarama-qarshi qo‘yilib, konfliktni yuzaga keltiradi. Ikkinchi darajali obrazlar esa asarning badiiy fonini kengaytiradi. Ular qishloq hayotining turli jihatlarini ko‘rsatib, asosiy qahramonlarning xarakterini ochishga yordam beradi.

Bu obrazlar orqali muhit, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlar yanada aniqroq tasvirlanadi. Syujet jihatidan roman izchil va mantiqiy rivojlanishga ega. Voqealar asosan urushdan keyingi qishloq hayoti fonida kechadi va kundalik turmush jarayonlari orqali asta-sekin rivojlanadi. Syujetning markazida inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, mehnat jarayoni va ma’naviy qadriyatlar turadi.

Har bir voqea qahramonlarning xarakterini ochishga, ularning ichki o‘rishini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Romanda konfliktlar ham ko‘proq ichki va ijtimoiy xarakterga ega.

Qahramonlarning o‘z vijdoni bilan kurashi, yangilikka moslashish jarayoni yoki jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishga intilishi syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa asarning faqat voqealar ketma-ketligidan iborat emas, balki chuqur ma‘naviy-psixologik mazmunga ega ekanligini ko‘rsatadi. Roman obrazlari va syujeti o‘zaro uyg‘unlashgan holda hayot haqiqatini realistik ruhda aks ettiradi hamda o‘quvchini insoniy qadriyatlar haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Romanda obrazlarning rivojlanishi dinamik xarakterga ega bo‘lib, ular voqealar davomida o‘zgarib, takomillashib boradi. Asarda ikkinchi darajali obrazlar ham muhim badiiy vazifani bajaradi. Ular asosiy qahramonlarning xarakterini to‘ldiradi, ijtimoiy muhitni kengroq ko‘rsatadi hamda voqealarning yanada ishonarli chiqishiga xizmat qiladi. Shu orqali yozuvchi qishloq hayotining turli qatlamlarini, insonlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni keng qamrovda aks ettiradi. Syujet rivojida detal va tasvirlarning o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Muallif kichik voqealar, kundalik hayot epizodlari orqali katta ijtimoiy va ma‘naviy g‘oyalarni ochib beradi. Bu usul romanning badiiy kuchini oshiradi, uni hayotga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, tabiat tasvirlari, qishloq manzaralari va mehnat jarayoniga oid lavhalar syujet bilan uyg‘un holda berilib, asarning umumiy ruhini boyitadi. Romanda vaqt va makon tasviri ham muhim rol o‘ynaydi. Voqealar aniq tarixiy davr — urushdan keyingi yillarda kechishi sababli, ijtimoiy o‘zgarishlar, insonlar dunyoqarashidagi yangilanishlar ham syujet rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Makon sifatida qishloq hayoti tanlanishi esa asarning milliy ruhini kuchaytiradi va o‘zbek xalqining turmush tarzini tabiiy holda aks ettirish imkonini beradi. Muallifning badiiy mahorati shundaki, u oddiy voqealar orqali murakkab hayotiy haqiqatlarni ochib bera oladi.

Syujetning soddaligi ortida chuqur mazmun yashiringan bo‘lib, u o‘quvchini mushohada qilishga undaydi. Shu tariqa, obrazlar tizimi va syujet uyg‘unligi romanning g‘oyaviy-badiiy qiymatini yanada oshiradi hamda uni o‘zbek adabiyotining muhim asarlaridan biriga aylantiradi.

Metodologiya. Tadqiqotda asar obrazlari prototiplari yaqqol ochib berilib, bu orqali yozuvchi yoritgan mavzular ko‘lami o‘rganildi. Shu bilan birgalikda obrazlar xarakteristikasi, ijobiy va salbiy obrazlar taqqoslash orqali o‘rganildi. O‘rganish jarayonida Abdulla Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” ramani matni dialoglari tahlili orqali yortildi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijasida Abdulla Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” romani chuqur badiiy-estetik va ijtimoiy mazmunga ega asar ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, asarda urushdan keyingi davr qishloq hayoti realistik ruhda tasvirlangan bo‘lib, unda insonlarning mehnat faoliyati, ruhiy kechinmalari va jamiyatdagi o‘zgarishlar ishonarli aks ettirilgan.

Obrazlar tizimi o‘rganilganda, qahramonlarning hayotiyliigi va individual xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘lishi, ularning har biri muayyan g‘oyaviy yukni tashishi aniqlandi. Ijobiy obrazlar orqali halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar targ‘ib etilgan bo‘lsa, salbiy obrazlar orqali jamiyatdagi kamchiliklar ochib berilgan.

Syujet tahlili natijasida esa asarning voqealar rivoji izchil, mantiqiy va hayotiylik tamoyiliga asoslangani, unda keskin drammatizm emas, balki tabiiy hayot oqimi ustuvor ekani aniqladi. Syujet va obrazlar o‘zaro uyg‘un holda ishlangan bo‘lib, bu asarning badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Muallifning realizmga asoslangan uslubi, badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanishi va hayot haqiqatini chuqur ochib bera olishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Natijada, mazkur roman o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallagan asarlardan biri ekanligi va uning bugungi kunda ham ma'naviy ahamiyatga ega ekani tasdiqlandi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" romani o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutuvchi, chuqur mazmun va yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asar ekanligi xulosa qilindi. Asarda urushdan keyingi davr qishloq hayoti realistik ruhda yoritilib, insonlarning mehnat faoliyati, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy munosabatlari hayotiy va ishonarli tarzda tasvirlangan.

Roman obrazlari tizimi orqali insoniy fazilatlar – halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va ma'naviy poklik kabi qadriyatlar chuqur ochib berilgan. Syujetning izchil va tabiiy rivoji esa asarning badiiy yaxlitligini ta'minlab, o'quvchini voqealar ichiga olib kiradi hamda unda hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi.

Muallifning realizmga asoslangan uslubi, oddiy voqealar orqali katta ijtimoiy va ma'naviy g'oyalarni ifodalay olishi uning badiiy mahoratini namoyon etadi. Asar nafaqat o'z davrining aks-sadosi, balki bugungi kun o'quvchisi uchun ham tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat, 1987.
2. HOTAM UMUROV "ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI" "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT A.QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI 2004